

**ZAMONAVIY DUNYODA MARGINALLASHUV JARAYONLARINING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Akramov G‘iyosiddin Najmuddin o‘g‘li

University of Business and Science non-davlat oliy ta’lim muassasasi “Ijtimoiy fanlar” kafedrasasi o‘qituvchisi

Email:giyosiddinakramov22@gmail.com

Tel: +998949072766

Акрамов Гиёсиддин Наджмиддинович

Преподаватель кафедры социальных наук негосударственное высшее учебное заведение University of Business and Science

Akramov G‘iyosiddin Najmuddinovich

Lecturer at the Department of Social Sciences Non-state higher education institution University of Business and Science

**СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССОВ МАРГИНАЛИЗАЦИИ
В МИРЕ**

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MARGINALIZATION PROCESSES IN
THE MODERN WORLD**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlari natijasida jamiyatdagi marginallik fenomenining dolzarbligi muhokama qilinadi. Marginallik fenomeni o‘zgaruvchan, o‘tkinchi va barqaror jamiyatlar uchun xos bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Marginallik, ijtimoiy o‘zgarishlar, tranzitivlik, periferik holat, marginal shaxs, ijtimoiy-madaniy hodisa, ijtimoiy tuzilmalar, jamiyat, inqirozlar.*

***Аннотация.** В данной статье обсуждается актуальность феномена маргинальности в обществе в результате политических, экономических, социальных и культурных изменений современного мира. Феномен маргинальности оценивается как социальное явление, характерное для изменяющихся, переходных и стабильных обществ.*

***Ключевые слова:** маргинальность, социальные изменения, транзитивность, периферийное состояние, маргинальная личность, социально-культурное явление, социальные структуры, общество, кризисы.*

***Abstract.** This article discusses the relevance of the phenomenon of marginality in society as a result of political, economic, social, and cultural changes in the modern world. The phenomenon of marginality is assessed as a social phenomenon characteristic of dynamic, transitional, and stable societies.*

Keywords: marginality, social changes, transitivity, peripheral state, marginal personality, socio-cultural phenomenon, social structures, society, crises.

Zamonaviy dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlar natijasida ilgari barqaror bo‘lgan barcha ijtimoiy tuzilmalar, ijtimoiy munosabatlar tizimi va ularning elementlari parchalanib ketgan o‘zgaruvchan jamiyatlar davrida marginallikni ko‘p qatlamlı ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida har tomonlama o‘rganish dolzarb va zamon talabiga aylanib bormoqda. Jamiyat hayotning ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy asoslarining yo‘q qilinishi, noaniqlik ommaviy marginalizatsiya fenomenining paydo bo‘lishi uchun samarali zamin yaratmoqda. Umumiy qilib aytganda, marginallik o‘zgaruvchan jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biriga aylanmoqda.[1]

Bu borada marginallik tushunchasi mohiyatini anglash jihatidan yangi mazmunga ega bo‘lib bormoqda. Uni tushuntirishning yangicha gnoseologik, aksilogik va ijtimoiy qonuniyat va metodologiyasini yaratishni talab qilmoqda. Marginallahuv so‘zining ko‘p ma’nolilik tabiatini uni ikki tomonlama talqin qilish imkonini beradi: u ijtimoiy sub'ye ktning chegaraviy holati (marginallik-tranzitivlik-“lotincha: transitus — o‘tish joyi, tashish”) va periferik (marginallik-periferik-markazdan chetda, uzoqda) holatini ham anglatishi mumkin.[2] Shu bilan birga, marginallik ko‘pincha marginallarning periferik holatini tavsiflovchi salbiy hodisa sifatida qaraladi. Garchi marginallik jamiyat hayotini izdan chiqaruvchi hodisa sifatida qaralsada, aslida bu jarayon uning jamiyatda namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida tushunish mumkin. Shuning uchun nafaqat jamiyatning ijtimoiy tuzilishida marginallikning mavjudligini hisobga olish, balki marginallik hodisasining o‘zlari ichidagi farqlarni ham hisobga olish muhimdir.

Marginallik hodisasining ham o‘ziga xos atributlari mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha talqin qilish mumkin: marginallik, marginal guruqlar va marginal shaxslar, marginal ong va xatti-harakatlar. Har qanday jamiyatni ushbu hodisalaridan holi tasavvur qilish qiyin. Boshqacha qilib aytganda, marginallik - bu har qanday tarixiy jamiyatlar va ijtimoiylashuvning turli xil ko‘rinishlariga doimiy va uzviy ravishda ta’sir o‘tkazib boradigan ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik hodisa.

Zamonaviy sharoitda marginallik asosan inqirozlar, tarkibiy o‘zgarishlar, ijtimoiy harakatchanlik va jamiyatning siyosiy modernizatsiya jarayonlari bilan bog’liq. Shuning uchun marginallik fenomeni barqaror, o‘tkinchi va o‘zgaruvchan jamiyatlarga xos deb aytish o‘rinli. Shundan kelib chiqib, marginallik barcha ijtimoiy harakatlar va o‘zgarishlarni kuzatib boradigan hodisa hamda jamiyatning ijtimoiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Chunki qandaydir o‘zgarishlar ro‘y bermaydigan jamiyatni tasavvur qilish mumkin emas. Biroq nisbatan barqaror jamiyatlarda yuqori darajadagi ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlaydigan tartibli ijtimoiy munosabatlar tarmog‘i

mavjud bo‘lib, aholining aksariyati mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar va mehnat faoliyati tizimiga kiritilgan.

Zamonaviy jamiyatning tipik vakili – marginal shaxsdir. Unga insonning jamiyatdagi oraliq holati bilan bog’liq bo‘lgan ikkiyolamalik, noaniqlik kabi xususiyatlar xos bo‘lib, bu uning ijtimoiy qarashlarida aks etadi. Kundalik hayotimizda u turlicha nomlar bilan ataladi. Marginallar haqida tasavvurlar nihoyatda qarama-qarshi bo‘lib, ular ayovsiz dunyoqarashda bo‘lganlar (“lyumpenlar”, “chetlatilganlar”, “daydilar”, “ildizlari bo‘lmagan odamlar”-deb atashadi)dan tortib neytral, rasmiy va hatto hamdardlik bildirishga moyil bo‘lgan (“migrantlar”, “qochqinlar”, “asirlar”, “vatandoshlar”)lari ham mavjud.[3]

Aslini olganda, barcha ijtimoiy o‘zgarishlar marginallashuv hodisalarini yuzaga keltiradi. Inson hayotidagi o‘zgarishlar jarayonida shaxs muqarrar ravishda “chegaraviy” holatda, ya’ni eski va yangi ijtimoiy muhit va munosabatlar o‘rtasidagi chegarada his qiladi. Agar inson hayotidagi o‘zgarishlar muvaffaqiyatsiz kechsa, inson ushbu holatda uzoq vaqt qolishi yoki hatto unda doimiy yashashi mumkin, bu esa to‘laqonli jamiyat a’zosini jamiyatdan ajralgan bo‘lakga aylantirishi mumkin.

Shu bilan birga, transformatsiya jarayonida marginal holat har doim ham ishonchsizlik, individual yoki guruhiy norozilik manbai bo‘lavermaydi. Aksincha, u atrof-muhit, jamiyat va insonni yangi ko‘z bilan idrok etish manbai bo‘lishi mumkin. Bu esa intellektual, badiiy va diniy ijodning noodatiy shakllarida aks etadi. Insoniyat jamiyati tarixi bunga guvoh: masalan, diniy protestantizm yoki tasviriy san’atdagi avangardizm kabi hodisalar aynan marginal shaxslarga bog’liq holda yuzaga kelgan.

Shu sababli, marginallarning jamiyatdagi ahamiyatini to‘liq ochib berish uchun ularning faqat salbiy jihatlarini emas, balki ijobiy tomonlarini ham o‘rganish muhimdir. Chunki ular zamonaviy transformatsiyalar davrida muhim rol o‘ynaydi.

Marganallik hodisasi doimo tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan va u ijtimoiy bilishning obyekti sifatida o‘rganilgan. Ushbu masalaning o‘rganilishi bo‘yicha dastlabki qadamni amerikalik sotsiolog R. Park tashlaydi. U olib borgan ilmiy izlanishlarida migratsiya jarayonlari ta’sida vujudga keluvchi marginallik hodisasiga asosiy e’tiborini qaratadi. R.Park “marginal shaxs” tushunchasini ilmiy atama sifatida ilmiy muloqotga kirtadi. Bu tushuncha immigrantlarning o‘zlarini uchun yangi bo‘lgan hayot tarziga moslashish zarurati sharoitidagi madaniy maqomi va o‘zini anglashini ifodalash uchun qo‘llagangan. Keyinchalik R. Parkniy marginal shaxs bo‘yicha ilmiy izlanishlarini E. Stounkvist davom ettirib, madaniy marganallik kontseptsiyasini yaratdi. Shuningdek, Amerikalik tadqiqotchilar orasida H. Diki-Klark, R. Merton, E. Hyuz va T. Shibutani kabi tadqiqotchilar ham marginallik kontseptsiyasi asoschilari sifatida o‘z o‘rinlariga ega.

Ushbu ijtimoiy falsafiy muammoni o‘rganishda ilmiy jihatdan oldinga siljish marganallikni nafaqat madaniyatlararo va etnik nizolar natijasi, balki ijtimoiy-siyosiy

jarayonlar oqibati sifatida vujudhga keluvchi hodisa ekanligi haqidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishi bo‘ldi. Bu yondashuv g‘arbiy Yevropa sotsiologiyasiga xos bo‘lib, ular tarkibiy marganallik konseptsiyasini ilgari surishdi (K. Marks, K. Raban, A. Farj).[4]

Marginallashuv hodisasini o‘rganish va unda to‘plangan bilimlar shuni ko‘rsatadiki, marganallikning uchta kontseptual paradigmaga:

- etnomadaniy marganallik;
- tarkibiy marganallik;
- ijtimoiy rol marganalligi kontseptsiyalari.

Ushbu kontseptsiyalar xilma xilligi hodisaning ko‘p qirraliligi va uning aniq ta’rifini belgilashdagi murakkabligini tasdiqlaydi. Jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar davrida shaxsni ijtimoiylashuvi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- tez kechayotgan ijtimoiy o‘tish jarayonlari;
- eski ijtimoiy me’yorlarning yangilari bilan tezkor almashishi;
- yangi qadriyatlar va ijtimoiy rollarni tez o‘zlashtirish zarurati;
- siyosiy, fuqarolik va iqtisodiy erkinliklar chegarasining kengayishi, bu ko‘pincha o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi;
- deviant xulq-atvorning keng tarqalishi va stereotiplarni o‘zlashtirish osonligi (“boshqalar ham shunday qilmoqda!”);
- turmush darajasi va daromadlar bo‘yicha jamiyatning keskin tabaqalanishi, bu esa aholining marginalizatsiyasiga olib keladi.

Bugungi kunda bir xil ijtimoiy tizimda turli, ba’zan qarama-qarshi qadriyat yo‘nalishlari birgalikda mavjud bo‘lmoqda. Shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiylashuv jarayoni, ya’ni insonning o‘z jamiyatidagi bilim, me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni, jamiyat uchun ham muhim, chunki bu shaxsni jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylantirishga yordam beradi. Ammo hozirgi zamonaviy sharoitlarda bu jarayon noodatiy shakl kasb etmoqda.[5]

Bugungi globallashuv sharoitida shaxs barqaror ijtimoiy ustuvorliklarni yo‘qotib, doimiy izlanish va tanlash istaklari asosida yashashga majbur bo‘lmoqda. Marginal holatning o‘ziga xosligi shaxsning tamomila yangi xulq-atvor usullarini qo‘llash zaruriyatida namoyon bo‘ladi. Qaysi qadriyat yo‘nalishlarini tanlash, hayotiy strategiyani ustuvor sifatida belgilash va oxir-oqibat, “men kimman?” degan savolga javob berish masalasi dolzarb bo‘lib qoladi.[6]

Marginallik zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida shakllanib, ijtimoiy o‘zgarishlar va barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu hodisa ijtimoiy subyektlarning chegaraviy yoki periferik holatini anglatadi va ko‘pincha salbiy baholanadi. Shunga qaramay, marginallikni jamiyat hayotining tabiiy bir qismi sifatida qabul qilish mumkin. Marginallik o‘zgarishlar

natijasida yuzaga kelgan yangi vaziyatlarga moslashuvni talab qiladi va jamiyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shaxsiy o‘zgarishlar muvaffaqiyatsiz kechgan hollarda marginallik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, marginallikni o‘rganish nafaqat jamiyat barqarorligini ta’minlash, balki ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Кемалова, Л. И., and Ю. Д. Парунова. "Личность маргинала и возможности ее социализации в условиях транзитивного общества: монография." Симферополь–Керчь: Таврия (2010).
2. Акрамов, Гиёсиддин. "Marginallashuvni yengishda falsafaning roli: imkoniyatlar va cheklovlari." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 301-303.
3. Белл, Д. "Социальные рамки информационного общества [Электронный ресурс]." Новая технократическая волна на Западе (2002).
4. AKRAMOV, G‘iyosiddin. "FALSAFA VA MARGINALIZATSIYA: FALSAFIY G ‘OYALARNING MARGINALIZATSIYANI TUSHUNISHGA QO ‘SHGAN HISSASI." News of the NUUz 1.1.5. 1 (2024): 52-54.
5. Гилинский Я.И. Социология девиантного поведения и социального контроля: краткий очерк // Социологические исследования – 1991. №4. – С. 51
6. Голенкова З.Т., Игитханян Е.Д., Казаринова И.В. Маргинальный слой: феномен социальной самоидентификации //Социологические исследования. – 1996. - №8. – С. 12-17.